

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDADI QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**BOSHLANG‘ICH TA’LIM METODIKASI
KAFEDRASI**

**5141600 – “Boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy
ish” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini
olish uchun IV «C» guruh talabasi**

**TURSUNOVA GULHAYOXONNING
“IKKINCHI SINF O‘QISH DARSLIGIDAGI LIRIK ASARLAR
MATNI USTIDA ISHLASH METODIKASI”
MAVZUSIDAGI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Ilmiy rahbar: Z.Isaqov,
katta o‘qituvchi.**

Q O ‘ Q O N – 2 0 1 1

Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika instituti 5141600 – “Boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish” ta’lim yo‘nalishi 4- “C” guruh talabasi Tursunova Gulhayoxonning “Ikkinchi sinf o‘qish darsligidagi lirik asarlar matni ustida ishlash metodikasi” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi

HAQIDA

Talaba bitiruv malakaviy ishni mavzuni qamrab olgan reja asosida yozishga kirishgan, fikrlarni bayon etishda ketma-ketlik tamoyili saqlangan. Fikrlar bayonida xususiy xulosalar chiqarilgan va umumiy xulosalar ish yakunida sistemaga solingan. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati ham maqsadga muvofiq tarzda keltirilib, ishda adabiyotlardan maqsadli foydalanilgan, ko‘chirmalar o‘rinli berilgan.

Ishning umumiy tavsifi – kirish qismda mavzuning dolzarbligi, mavzuning o‘rganilganlik darajasi, ishning maqsad va vazifalari, ishning nazariy, amaliy ahamiyati, ishning sinalishi to‘la ochilgan.

Ishning birinchi bobida boshlang‘ich sinflarda adabiy asar o‘qitishning maqsad va vazifalari, ikkinchi sinf o‘qish darsligining bo‘limlari va o‘quvchilarning bilimlariga qo‘yiladigan talablarga to‘xtab o‘tilgan.

Ikkinchi bobda ikkinchi sinfda lirik turga mansub asarlarni ifodali o‘qishga o‘rgatish metodikasi, ikkinchi sinf o‘qish darsliklarida lirik turga mansub asarlarning berilishi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari, lirik turga mansub asarlarni o‘qitishda she’r nazariyasi haqida bilimlar berish yo‘llari, lirik turga mansub asarlarni o‘qitishda badiiy tasvir vositalari ustida ishlash metodlari keng yoritilgan, yetarli nazariy fikrlar keltirilib, amaliy ishlar bilan isbotga tortilgan.

Xulosa qismda lirik turga mansub asarlarni o‘qitishning ma’naviy-axloqiy ahamiyati yoritilgan.

Lekin ishni diqqat bilan kuzatganimizda, ayrim qo‘pol bo‘lmagan kamchiliklar ko‘zga tashlandi:

1. Ishning dastlabki nazariy qismida biroz chekinishlar ko‘zga tashlanadi.
2. Ayrim o‘rinlarida imloviy, uslubiy va tinish belgilariga oid kamchiliklar uchraydi.

Ishdagi bu ayrim kamchiliklar bitiruv malakaviy ishining mazmuniga katta ta’sir qilmasligini hisobga olib, ish oliy maktab talablariga mosligiga asoslanib, BMIning himoyaga tavsiya etaman.

Ish rahbari:

Z.Isaqov.

BTM kafedrası katta o‘qituvchisi.
6-aprel 2011- yil.

BUYUK VA MUQADDASSAN, MUSTAQIL VATAN!

Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e‘tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o‘tib, qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir. Biz bunday o‘tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak.

Islom Karimov, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.

IKKINCHI SINIF O‘QISH DARSLIGIDAGI LIRIK ASARLAR MATNI

USTIDA ISHLASH METODIKASI

R E J A :

Ishning umumiy tavsifi.

I. BOB.

1-§. Boshlang‘ich sinflarda adabiy asar o‘qitishning maqsad va vazifalari haqida.

2-§. Ikkinchi sinf o‘qish darsligining bo‘limlari va o‘quvchilarning bilimlariga qo‘yiladigan talablar.

II. BOB.

1-§. Ikkinchi sinfda lirik turga mansub asarlarni ifodali o‘qishga o‘rgatish metodikasi.

2-§. Ikkinchi sinf o‘qish darsliklarida lirik turga mansub asarlarning berilishi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari.

3-§. Lirik turga mansub asarlarni o‘qitishda she‘r nazariyasi haqida bilimlar berish yo‘llari.

4-§. Lirik turga mansub asarlarni o‘qitishda badiiy tasvir vositalari ustida ishlash metodlari.

Xulosa. Ikkinchi sinf o‘qish darsligidagi lirik turga mansub asarlarni o‘qitish orqali o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash.

Ishning umumiy tavsifi

Mavzuning dolzarbligi. Bugun biz tarixiy bir davrda – xalqimiz o‘z oldiga ezgu va ulug‘ maqsadlar qo‘yib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor o‘z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo‘lida ulkan natijalarni qo‘lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz (17-3). Respublikamiz ta‘lim tizimi sohasini rivojlantirishdagi eng muhim hujjatlar «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosiy maqsadi – har tomonlama etuk, bilimli, sog‘lom, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qiladigan – komil insonlarni tarbiyalashdir.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va bozor islohotlarining yanada chuqurlashtirilishi natijasida yildan yilga salmoqli natijalar qo‘lga kiritilib, barqaror iqtisodiy o‘sish yo‘nalishi mustahkamlanib bormoqda. Bunda hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy siyosatning to‘la va izchil amalga oshirilishi, iqtisodiyotning muhim ustuvor tarmoqlarining belgilab berilishi hamda ularni rivojlantirish bo‘yicha barcha imkoniyatlarning safarbar etilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining istiqbolga erishuvi, o‘zbek tiliga e‘tiborning kuchayishi ilm-fan sohasida ham katta tadqiqotlarni amalga oshirishni talab etmoqda. Bu davrda milliy tilning nozik qirralarini bilish, undan nutq jarayonida unumli foydalanish madaniylik ko‘rinishlaridan biridir. Fan va texnika rivojlangan paytda hayotimizda matbuot, radio va televidenie ishlari tobora kengaymoqdaki, oqibatda adabiy tilga bo‘lgan e‘tibor ham kuchaymoqda. Umuman, hozirgi davr tilini va uning leksik, grammatik hamda stilistik xususiyatlarini chuqurroq bilishni davr talab etmoqda. Chunki tilni bilish dilni bilishga yo‘l ochadi, deb bejizga aytishmagan donishmandlar. Tilni bilish va uning nozik imkoniyatlarini o‘quvchi qalbida joylash o‘qituvchining hayotiy zaruriyatidir.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida lirik asar matni ustida ishlash va bu ishlarni uyushtirish yo‘llari haqida juda ko‘plab ishlar bajarilgan hamda talay tavsiyalar berilgan. Biz ham bu sohaga murojaat etib, qilingan ishlarni keng va

atroflicha tahlil qilishga bu sohada echimini kutayotgan o'rganilishi zarur masalalarga e'tiborni qaratishga harakat qildik. Ona tilimizning rang-barang xususiyatlarini o'rganar ekanmiz tilimizning boy qirralarini hushyorlik bilan anglash va ehtiyotkorlik bilan ishlatishni o'rganmog'imiz kerak.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Munozaraga tashlanayotgan muammo yuzasidan etakchi metodistlarimiz tomonidan atroflicha ishlar qilingan, talay tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ammo 2-sinf o'qish darslarida lirik asar matni ustida ishlashga doir aytadigan juda ko'plab shaxsiy mulohazalarni o'ylab yurar edik. Bu mulohazalarning amaliy sinovini malakaviy amaliyot davrida kuzatib, o'z ishlarimizni nechog'li to'g'ri ekaniga iqror bo'ldik. Shu bahona bitiruv malakaviy ishimizda bu mavzuga qo'l urib, o'zimizning bu mavzuga oid qarashlarimini qog'ozga tushirishga ahd qildik.

Ishning maqsad va vazifalari.

Malakaviy ishimiz uchun quyidagi maqsad va vazifalarni belgiladik:

- o'qish darslarida lirik asar matni ustida ishlashning boshlang'ich ta'limdagi o'rnini belgilash;
- ikkinchi sinf ta'limida lirik asar matni ustida ishlashning rang-barang turlaridan foydalanish yo'riqlarini ishlab chiqish;
- ikkinchi sinf o'qish darslarida lirik asar matni ustida ishlashga qo'yiladigan talablarni belgilash;
- o'qish darslarida lirik asar matni ustida ishlash orqali o'quvchilar nutqni to'g'ri va ravon bo'lishlariga erishish yo'llarini ishlab chiqish.

Ishning ilmiy yangiligi. Lirik biror hayotiy voqea-hodisa ta'sirida insonda tug'ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg'ular orqali turmushni aks ettiradi (10-91). Bundan kelib chiqib, ikkinchi sinf o'qish darslarida lirik asar matni ustida ishlash orqali o'quvchilarning kechinmalarini she'r bilan ifodalash va his etishga o'rgatish yuzasidan amaliy tajribalarimizni o'rta tashlaymiz. Ona tilimizning serqirra va ta'sirli tomonlarini to'g'ri hamda o'rinli ishlatish malakalarini hosil qilish

yo‘llarini ishlab chiqib, bolalar qalbida ezgulikni qaror toptirish vazifasini bajariy yo‘riqlarini tavsiya etishga harakat qildik.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Ikkinchi sinf o‘qish darslarida lirik asar matni ustida ishlash orqali nazariy ma’lumotlar keng va atroflicha o‘rtaga tashlandi, bu ma’lumotlardan boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi kursining sinfda va sinfdan tashqari o‘qish, nutq o‘stirish qismida va maxsus kurs mashg‘ulotlarida nazariy material sifatida foydalanish mumkin. Ishdan amaliy jihatdan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich ta’limida va pedagogika institutlarining tegishli bo‘limlari talabalari bitiruv malakaviy ishi, kurs ishi loyihalari uchun material sifatida hamda malakaviy amaliyoti davomida amaliy tavsiya sifatida foydalanishlari mumkin.

Ishning sinalishi va natijalarining ommalashtirilishi. Ish amaliy jihatdan malakaviy amaliyot davrida 2-sinf o‘qish darslarida sinovdan o‘tkazilgan, tajribalar sistemaga keltirilgan, ishlarning natijalari yuzasidan ustozlardan ijobiy baho olingan. Ishni keng miqyosda ommalashtirish o‘qitishdagi muammolarni ijobiy echishga yordam beradi.

Ishning tuzilish va umumiy hajmi. BMI ishning umumiy tavsifi, ikki asosiy bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, hajmi – 46 sahifa.

I. BOB.

1-§. Boshlang'ich sinflarda adabiy asar o'qitishning maqsad va vazifalari haqida

San'atning bir qancha turlari mavjud: xaykaltaroshlik, rassomlik, naqqoshlik va hokazo. Bu san'at turlari bir taraflamadir, ya'ni narsani hozirgi holatini ifodalaydi. Adabiyot esa hozirgi holatini qanchalik ishonarli aks ettirsa, uning o'tmishini ham, kelajagini ham shunchalik ta'sirchan va jonli aks ettira oladi. Badiiy adabiyotda tasvirlanayotgan hayot bizga taaluqli bo'lmasa ham, biz shu asar qahramonlari bilan go'yo taqdirdosh bo'lib qolamiz. Badiiy asar hissiyotimizga, tuyg'ularimizga ta'sir qiladi, yuragimizni bezovta qiladi. Kitob varaqlari ichidan qahramonlarning holatiga befarq bo'ladigan odam atrofidagi tirik kishining dard-quvonchlariga loqayd bo'la olmaydi. Yozuvchining tuyg'ulari nechog'li kuchli, nigohi o'tkir, dardlari salmoqli, tili biyron bo'lsa, o'quvchi uning asarlariga shunchalik qattiq beriladi. Buning ustiga badiiy asarlarining o'ziga xos musiqaviyligi, ohangdorligi, so'zlarni ajib bir mahorat ila ishlatilishi tufayli paydo bo'lgan holat, ijodkorning dunyoni tasvirlashdagi o'ziga xosligi kitobxonni o'ziga rom etadi.

O'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra boshlang'ich ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Barcha predmet darslarini o'qish faoliyatisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki matnni tushunib, bir maromda, to'g'ri va ifodali o'qishni o'rgatish bilan o'qish darslari shug'ullanadi. O'qish darslari orqali o'quvchilarning DTS bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan bilimlarni hamda o'quv, bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlariga yo'l ochiladi. Aynan o'qish ta'limida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa, olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi. Shuning uchun "O'qish kitobi" darsligidagi ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnat, istiqloq va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchlik kabi turli mavzular kiritilgan. Mazkur mavzularga oid badiiy va ilmiy-ommabop asarlar

ta'limiy, axloqiy xarakterda bo'lib, ular o'quvchilarning aqliy kamoloti va ma'naviy axloqiy tarbiyasiga qaratilgan.

“O‘qish kitobi”da o‘qishning barcha bosqichlariga oid mavzular berildi, uning o‘ziga xos xususiyati o‘quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirish, dunyoqarashlarini milliy istiqlol mafkurasi asosida to‘g‘ri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanadi. Tanlangan mavzular o‘quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo‘yicha bilim va tarbiya berishni ta’minlaydi. Ularning ichida istiqlol, vatan, ma’naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarning o‘zlikni anglash, istiqlol, vatan va tabiat bilan bog‘liq tuyg‘ularini uyg‘otishdir.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchi haqiqiy ijodkor sanaladi, ta’lim jarayonida o‘quvchining mavzuni tinglash, anglash, erkin va mustaqil fikrlash, o‘z fikri, g‘oyalarini o‘zgalarga etkaza bilish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga yo‘naltirish, boshqarishi darkor. Shuningdek, u yoshlarning axloqiy ma’naviy tarbiyasi bilan shug‘ullanishi, ularga sharqona muloqot odobi, milliy an’analarimizga hurmat ona-Vatanga muhabbat tuyg‘usi kabi zaruriy hikmatlarni singdira bilishi lozim.

O‘quv mashg‘ulotlarini yangi zamonaviy shakl va usullarda tashkil qilish, o‘quvchilarni dars jarayonida maqsadni boshqara olish o‘qituvchilik faoliyatining bosh mezonini deb qaralmoqda.

Ilg‘or pedagogik texnologiyaga asoslangan zamonaviy dars turlari va shakllarini qo‘llash, o‘quvchining ta’lim jarayonidagi o‘rni, unga yangicha yondashuv, yangicha munosabatni ta’minlash, mazkur jarayonni mohirlik va idrok bilan boshqarish demakdir.

Mustaqillik tufayli yuz berayotgan hozirgi yangilanishlar, jamiyatimiz taraqqiyoti va istiqboli, ta’lim sohasidagi islohotlar umumjahon andozalariga mos keladigan, zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bilan chambarchas bog‘liq.

Respublikamiz ta'lim tizimida nafaqat shaklan, balki mazmunan isloh qilish va taraqqiyot bosqichini amalga oshirish, ta'limning izchillik va uzviyligini ta'minlash, ta'lim turlarida o'qitishning yangi metodlarini ishlab chiqish, darslarda ilg'or pedagogik va zamonaviy vositalarni keng qo'llash kabi jiddiy masalalarni hal qilishiga alohida e'tibor berilmoqda. Ta'lim tizimini jahon miqyosida obro'-e'tiborini yanada oshirishda «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi singari muhim hujjatlarda belgilangan chora-tadbir va ko'rsatmalarning xizmati katta bo'lmoqda. Mazkur hujjatlarda oliy o'quv yurtini bitiruvchi bakalavrlar oldiga katta talablar qo'yilmoqda hamda komil inson bo'lib etishishlari uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda. Jumladan, bo'lg'usi mutaxassislarning keng dunyoqarashga, chuqur bilimga, talab darajasidagi malaka va ko'nikmalariga ega bo'lishi alohida e'tirof etilmoqda. Ma'lumotli mutaxassislarning og'zaki va yozma nutqiy tayyorgarligiga ham e'tibor berilmoqda.

Ma'lumki, ona tili va adabiyot ta'limi oldiga qo'yilgan eng muhim talablardan biri o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan. Insonning moddiy dunyoni bilishi, uning tafakkuri va tili orqali yuzaga keladi. Tafakkur tashqi olamning kishi miyasida aks etishi bo'lsa, til tafakkurni shaklga solib, so'zlar yordamida undagi fikrni voqe qiladi.

Mustaqilligimiz qurilishning dongdor kishilari, shonli Vatanimiz fani va san'atining mashhur namoyondalari va boshqalar hayotidan olingan materiallar va biografik ocherklar, o'zbek kishilarining qahramonona mehnati, botirligi, jasurligi va fidokorligini o'zida aks ettirgan badiiy asar va ilmiy ommabop maqolalar o'quvchilarda badiiy adabiyotga o'qishlarini oshiradi, zavq-shavq uyg'otadi.

Jamiyatning taraqqiyoti sog'lom aqlga muvofiq yo'nalishga tushuvi bilan unda inson omilining salmog'i inson omilining oshuvi esa bu jamiyatda ma'naviy qadriyatlarga e'tibor kuchayishiga olib keladi. Ma'naviy qadriyatlar ustivor bo'lgan jamiyat chin taraqqiyot yo'liga tushgan hisoblanadi. Mustaqillikka

erishgan mamlakatimizda ma'naviy qadriyatlarga e'tiborning benihoya ortib borishi shu ma'noda tabiiy holdir. Ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning tub o'zgarishlarga yuz tutishi jamiyat a'zolarining ongi keskin evrilishlar bo'lishiga olib keldi. Milliy tafakkurdagi yangilanish ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishga da'vat etilgan muassasalar ishida ham tub burilishlar bo'lishini taqozo etadi.

2-§. Ikkinchi sinf o'qish darsligining bo'limlari va o'quvchilarning bilimlariga qo'yiladigan talablar

2-sinfda o'quv dasturiga ko'ra (8-21) "O'qish va nutq o'stirish" yil mobaynida 136 soat o'tiladi, shundan sinfda o'qish va nutq o'stirishga 119 soat, sinfdan tashqari o'qishga 17 soat taqsimlanadi.

O'qish mavzulari quyidagicha taqsimlanadi:

Ona yurtim – oltin beshigim (19 soat)

O'quvchilarga bizning ona yurtimiz – O'zbekiston Respublikasi, uning poytaxti Toshkent ekanini, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Farg'ona, Andijon, Namangan, Qashqadaryo, Surxandaryo, Jizzax, Sirdaryo, Toshkent, Navoiy kabi viloyatlari borligi uqtiriladi .

Har kim o'z ona yurtini sevishi, uning tinch , go'zal bo'lishi uchun harakat qilishi o'quvchilarga hayotiy misollar bilan tushuntiriladi .

O'zbekiston xaritasidan mamlakatimiz hududi va undagi qadimiy shaharlar bog'u dalalarda yashagan qadimgi ota- bobolarimiz o'z ona yurti begona yurt kishilariga mut'e bo'lmasliklari yo'lida tinmay kurashib kelganliklari; hozirgi kun haqida vatanimiz go'zalligi, halqi farovonligi yo'lida o'qish va mehnat qilish kerakligi haqida uqtiriladi.

Maktabim – qutlug' makonim, kitobim- oftobim (12 soat)

O'quvchilarga maktab muqaddas dargoh, kitob mo'tabar ekanligi haqida amaliy tushunchalar beriladi. Ularga o'qituvchi ustoz-murabbiylar ekanligi, u bolalarga bilim chashmalarini ochuvchi ulug' va mo'tabar inson sifatida

e'zozlanishi, bilim manbayi – kitobni sevis, ardoqlash, asrash o'quvchilarning burchi ekanligi, kitoblar ularga ko'p voqea-hodisalar haqida hikoya qilishi, shuning uchun ham ular katta boylik deb ta'riflanishi haqidagi bilimlar singdiriladi. O'quvchilarga shuning uchun ham maktab va kitobni quyoslashga o'xshatilishi uqtiriladi, kitob o'qish qoidalariga rioya qilish eslatiladi.

Mehnat – baxt keltirar (10 soat)

Mazkur bo'limdagi matnlar o'quvchilarda mehnat qilishga, hunar o'rganishga ixlos qo'yish kabi xislatlarni tarbiyalaydi. O'quvchilarga mehnatkash ota-bobolarimizning mehnatdan baxt-saodat topganliklari, o'lkamizda bog'-rog'lar, ekinzorlar yaratganliklari, ularning faol mehnatlari haqidagi lavhalar tavsiya etiladi. Ular mehnat haqidagi hikmatli o'gitlar, maqol va masallar mazmuni bilan tanishtiriladi.

O'quvchilarga mamlakatimizda mehnat shon-shuhrat ishiga aylangni, mehnat tufayli to'q-farovon yashash mumkinligi, bolalarning kattalarga yordami, ular oldida dastyorlik vazifasini bajarishlari, orasta va saranjom, sarishta bo'lishlari, oila iqtisodi, tejamli bo'lishi haqida tushunchalar beriladi.

Oltin kuz - hosiling yuz (6 soat)

Kuz tabiatiga doir asarlar. Kuzda insonlar mehnati, ularning tabiatga munosabatlari. Tabiatga sayr va sayohat. Kuz mavzusida insho yozish.

Otalar so'zi – aqlning ko'zi (12 soat)

Odob – axloqqa doir fazilatlarni shakllantira borish, ot-bobolarimizning durdona fikrlarini yod olish, ularga amal qilish, ibratli voqea – hodisalar ifodalangan matnlarni o'qish, ulardagi ma'nolarni tahlil qilish, misollar aytish. O'quvchilarda milliy an'analarga mehr uyg'otish.

Kumush qish - misoli oqqush (9 soat)

Qish tabiati, dala va bog'larning qishki ko'rinishi, o'quvchilarning qishki ta'tili kunlari, qishki o'yinlar. Qorbobo, qorqiz-bolalar mehmoni. Qishda tabiatga sayr va sayohat.

Zumrad bahor-bahri diling ochar (16 soat)

Bahor tabiati, gullar, o'simliklarning bahorgi hayoti, kishilarning bahorgi mehnati, bolalarning o'yinlari haqidagi asarlar va she'rlar. 8 - mart onalarimiz bayrami. Bahorda tabiatga sayr va sayohatlar.

Qushlar, hayvonlar - bizning do'stimiz (5 soat)

Qushlar va hayvonlar haqidagi hikoyalar, she'rlar va ertaklar. Kishilarning jonivorlarga munosabati. Qushlar bayrami, «Hayvonot bog'i» ga sayohat. Qushlar ona tabiatimizning bir bo'lagi ekanligi ularni mumkin qadar e'zozlash, ehtiyotlash ularni asrash kerakligi uqtiriladi.

Ertaklar – yaxshilikka yetaklar (13 soat).

Ertaklar olamiga sayohat. Nima yaxshiyu, nima yomonligini ertaklardagi voqea-hodisalar orqali uqib olish. Ertak qahramonlarining holatini so'zlab berish, voqealarni rasmda ifodalash.

Yoz – o'tadi soz (8 soat)

Yoz tabiati, pishiqchilik, o'quvchilarni yozgi ta'til kunlaridagi dam olishlari va mehnatlari haqidagi she'rlar, matnlarni o'qish hamda yod olish.

Yoz tabiati haqida hikoya tuzish, insho yozish.

Tabiatni kuzatish, sayr-sayohatga borish.

Tabiatni asrang, avaylang (6 soat)

Bolalarni tabiatga yaqinlashtirish maqsadida u haqidagi ajdodlarimizning nasihatlari, shoir va yozuvchilarning asarlaridan namunalar, matn mazmuniga mos rasmlar beriladi. Darslikda berilgan asarlar o'quvchilarni tabiatga ongli munosabatda bo'lishga o'rgatadi.

Atrofimizdagi olam darsi bilan bevosita bog'lanib, mujassamlashgan savol berish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Yod olish uchun:

O'zbekistonim (Hamza Imonberdiyev).

Vatan (Narimon Orifjonov).

O'lka (Erkin Vohidov).

O'quvchiga esdalik (Quddus Muhammadiy).

Muallimim (Yusuf Shomansur).

Kuz keldi (Uyg'un).

Humo qushim (Po'lat Mo'min).

Shudring (Muhammad Ali).

G'alaba kuni (Muxtor Xudoyqulov).

Oq terakmi, ko'k terak (Kavsar Turdiyeva).

Yoz (Abdurahmon Akbar).

Oqish ko'nikmalari. O'quv yilining birinchi yarmi: ongli, to'g'ri bo'g'inlab sidirg'a o'qish. Bo'g'in tuzilishi sodda bolgan so'zlarni yaxlit o'qish. Notanish matnni o'qish tezligi bir daqiqada 30-35 so'z. O'quv yilining ikkinchi yarmi: so'zlarni yaxlit (ayrim ko'p bo'g'inli sozlarni bo'g'inlab) to'g'ri tushunib va ifodali o'qish. Notanish matnni o'qish tezligi bir daqiqada 40-50 so'z. O'qish vaqtida vergul va gap oxiridagi tinish belgilariga mos to'xtam (pauza) hamda ohangga rioya qilish.

Matn ustida ishlash. Og'zaki bog'lanishli nutq. Matn mazmuni asosida tuzilgan savollarga javob berish. O'qilganlarga o'z munosabatini bildirish. O'qituvchi savoli yoki darslikda berilgan rasm asosida matn masmunini qayta hikoyalash. O'qituvchi yordamida matnni qismlarga bo'lish, ularga sarlavha tanlash, matnnig asosiy mazmunini aniqlash; matnda qatnashuvchi shaxslarni, tabiat manzaralarini tasvirlovchi so'z va iboralarni tahlil qilish hamda shu so'zlar ishtirokida og'zaki hikoya tuzish.

Ertak, she'r, hikoyalarni janriy xususiyatlariga ko'ra farqlay olish. Darslik mundarijasi bilan ishlay olish.

Sinfdan tashqari o'qish va nutq o'stirish (17 soat)

O'qish materiallari. 8-30 bet hajmdagi bolalarbop badiiy, ilmiy-badiiy kitoblar. O'quvchi ovozsiz mustaqil o'qish va tanlab ovoz chiqarib o'qish uchun 1-5 bet hajmli she'r, ertak va hikoyalar.

O'qish mavzulari. Ona Vatan va ota-bobolar jasorati, o'simliklar, qushlar hamda hayvonlar haqidagi asarlar.

Kitobning muqovasi (tituli), betlarini farqlay olish.

Kitobning nomi, muallifi va rasmlari asosida mazmunini aniqlay olish. Kim yoki nima haqida o'qidingiz? savoliga javob berish; mazmunini aniqlash. Qahramonlarning xatti-harakatini, xulqini va ular boshdan kechirgan voqea-hodisalarni mustaqil baholay olish.

II. BOB.

1-§. Ikkinchi sinfda lirik turga mansub asarlarni ifodali o‘qishga o‘rgatish metodikasi

O‘qish orqali inson borliq, jamiyat haqida bilimga ega bo‘ladi, o‘qishni bilmagan odamning ko‘zi ojiz kishidan farqi yo‘q. Boshlang‘ich sinfda o‘qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o‘qishga o‘rgatishning yo‘l-yo‘riqlarini o‘qish metodikasi ishlab chiqadi. O‘qish metodikasining kichik yoshdagi o‘quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiyasi, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar bog‘liq fanlar yutug‘i asosida shakllanib boradi.

Hozir maktablarda o‘qish izohli o‘qish metodida olib borilyapti. O‘qish darslarida o‘quvchilar tabiat, jamiyat, unda yashovchi kishilar hayoti, ularning o‘tmishi, hozirgi yashash tarzi, mashhur kishilari haqida, vatanning tabiati; ob-havosi, boyliklari, hayvonot dunyosi va boshqalar haqidagi bilimlarni egallydilar. Bilim olish jarayonida ularga nisbatan munosabat uyg‘onadi. Bilim berish bilan o‘quvchi shaxsi tarbiyalanib boradi.

V.A.Suxomlinskiy bu haqida shunday deydi: “Bolalar dunyoni va o‘z-o‘zini bila borish bilan birga katta avlodlar yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklar uchun o‘zining mas’ulligini oz-ozdan bila borishlari kerak... bolaga yaxshilik va yomonlikni to‘g‘ri ko‘rish imkonini berish kerak. yaxshilik unda quvonch, zavq, hayajon, ma’naviy go‘zallikka erishish ishtiyoqini hosil qiladi; yomonlik qahrg‘azab, murosasizlik uyg‘otadi, haqiqat va adolat uchun kurashga chorlovchi ma’naviy kuchga to‘ldiradi”..

Sinfda o‘qish darslari quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. O‘qish malakasini takomillashtirish. O‘quvchilarda yaxshi o‘qish sifatlari: to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakalarini shakllantirish.

2. Bolalarda kitobga muhabbat uyg‘otish, kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimni olishga, ya’ni kitob bilan ishlashni biladigan, chuqur fikrlovchi, sermulohaza kitobxonlarni etishtirish.

3. O'quvchilarni tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, dunyoqarash elementlarini shakllantirish.

4. O'quvchilar axloqiy-estetik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash.

5. O'quvchilarni nutqini va tafakkurini o'stirish.

6. Adabiy tasavvur elementlarini shakllantirish.

Bu vazifalarni bajarishning aniq yo'li bo'lishi zarur.

Yaxshi o'qish malakalarining sifatlariga to'g'ri, tez ongli va ifodali o'qish kiradi va ular o'qish darslarida o'zaro bog'liq holda takomillashtiriladi, bu to'rt o'qish sifati bir-biri bilan uza'iy bog'liq. Ongli o'qish asosiy hisoblanadi, chunki o'quvchi o'zi o'qisa-yu, o'qiganini anglamasa bunday o'qish talabga javob bermaydi, o'qiganini tushunmaslikka olib keladi. To'g'ri o'qish ongli o'qishga xizmat qiladi. Tez, to'g'ri, ongli o'qish ifodali o'qishning asosi hisoblanadi.

Yaxshi o'qish sifatlarini egallash maktabda barcha predmetlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishning sharti hisoblanadi.

O'qish malakasi murakkab malaka bo'lib, uning shakllanish jarayonini metodist T.G.Egorov 3 bosqichga bo'ladi:

1. Analitik bosqich. Savod o'rgatish jarayoniga to'g'ri keladi. Unda bolalarda so'zlarni bo'g'inlab o'qish malakasi shakllantiriladi.

2. Sintetik bosqich. Bu bosqichda so'zni sidirg'a o'qish malakasi shakllantiriladi. Bunda so'zni ko'rish bilan uning tovush tomoni idrok qilinadi. So'zning talaffuzi bilan ma'nosini anglash mos keladi. Sidirg'a o'qishga asosan o'quvchilar 3-sinfda o'tadilar.

3. Avtomatlashgan o'qish. Bu o'qishda o'quvchi-kitobxon so'zning bosh qismiga qarab o'qib ketaveradi. O'qishning keyingi yillariga to'g'ri keladi. 4-sinfda ba'zi o'quvchilar o'qishi avtomatlashadi.

O'qish darslari shunday tashkil qilinishi kerakki, mazmunini tahlil qilish yaxshi o'qish malakalarini takomillashtirishga yo'naltirilsin.

Yaxshi o'qish malakasining sifatlaridan biri – to'g'ri o'qishdir. To'g'ri o'qishga bir nechta metodist olimlar ta'rif berganlar:

K.Qosimova: to'g'ri o'qish xato qilmasdan, yanglishmasdan o'qishdir. SHu ta'rifni kengaytirib: to'g'ri o'qish so'zning tovush-harf tarkibini, grammatik shaklini buzmasdan, so'zdagi biror tovush yoki bo'g'inni tushirib qoldirmasdan, ortiqcha tovush yoki bo'g'in qo'shmasdan, harflarning o'rnini almashtirmasdan, so'zning urg'usiga rioya qilib o'qish to'g'ri o'qishdir.

M.Odilova, T.Ashrapova: Adabiy talaffuz normalariga qo'yilgan barcha talablar to'g'ri o'qish ko'nikmasiga ham taalluqlidir, deyiladi. Demak, ularning fikricha, materialni adabiy talaffuz normalariga rioya qilgan holda o'qish to'g'ri o'qish deyiladi.

Rus metodisti Yakovleva: To'g'ri o'qish bu materialni tovush tomonidan xatosiz va bir tekisda ravon nusxa ko'chirishdir.

Har 3 ta ta'rifning mohiyati bir xil. Ya'ni to'g'ri o'qish so'zning tovush tarkibini grammatik shaklini buzmasdan, adabiy-orfoepik talaffuz normalari asosida o'qishdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari to'g'ri talaffuz bilan matn ma'nosini puxta sintez qilishga qiynaladilar.

O'qish ko'nikmalarini takomillashtirish uchun asar ustida ishlashni o'qitish bilan birga amalga oshirish zarur.

O'qish jarayonida xatolar turli sabablarga ko'ra kelib chiqadi:

1. So'zni talaffuz qilish bilan uning ma'nosini tushunish o'rtasida puxta sintez bo'lmagani uchun, ya'ni bola oldin so'zni tovush tomonini ko'radi, uni talaffuz qilishga harakat qiladi va ma'nosini e'tibordan chetda qoldiradi.

2. So'zlar ko'p bo'g'inli (murakkab bo'g'in tuzilishidagi so'zlarni o'qishda), ya'ni so'zning tovush tarkibi murakkabligi uchun tez o'qiyman deb xatoga yo'l qo'yadilar.

3. To'g'ri o'qish yorug'likka, matn shriftiga, bolaning ko'ruv sezgisiga ham bog'liq.

To'g'ri o'qishni ta'minlash uchun o'qituvchi quyidagilarga rioya qilishi kerak:

1. Matnni o‘qishdan avval o‘qilishi qiyin, tuzilishi murakkab so‘zlarni, birikma va gaplarni aniqlashi, ular ustida ishlash usullarini belgilab olishi lozim.

2. Ma’nosi tushunarsiz so‘zlarni aniqlashi.

3. Matnni yaxshi, o‘rta, yomon o‘qiydigan o‘quvchilarga o‘qitiladigan qismni oldindan belgilab chiqishi.

4. O‘qituvchi yoki sinf o‘quvchilarining nazorati ostida o‘qishni doimiy mashq qildirishi.

5. Xato qilishi mumkin bo‘lgan o‘rinni belgilab olishi.

Xato o‘qishni bartaraf etish:

1. Tuzilishi murakkab so‘zlarni xattaxtaga yoki kartonga bo‘g‘inlarga bo‘lib yozish, oldin o‘quvchilarga ularni bo‘g‘inlab, so‘ng sidiq‘a o‘qishni mashq qildirish.

2. So‘z ma’nolarining sinonimini, antonimini keltirib yoki gap ichida qo‘llab tushuntirishi.

3. Xatcho‘pdan foydalanish. Xatcho‘p diqqati tarqoq bolaga, ko‘ruv sezgisi past o‘quvchiga juda foydali.

4. Xato o‘qishi mumkin bo‘lgan o‘rindan o‘quvchini ogohlantirish.

5. Kesma harf va kesma bo‘g‘indan foydalanish.

6. To‘g‘ri o‘qish uchun sharoit yaratish.

7. SHivirlab va ichda o‘qishdan foydalanish

O‘quvchilar yo‘l qo‘yadigan xatolar 2 xil:

1. So‘z ma’nosini noto‘g‘ri anglashga olib keluvchi xatolar (urg‘uni noto‘g‘ri qo‘yib o‘qish tufayli).

2. So‘zlarni o‘qib olishga xalal beradigan xatolar.

Xatoni quyidagicha to‘g‘rilash usulidan foydalaniladi:

1. So‘z oxiridagi qo‘shimchani noto‘g‘ri o‘qisa, o‘qishdan to‘xtamasdan to‘g‘rilash.

2. O‘qish paytida gapning mazmuni buzilib ketsa, o‘qib bo‘lgach qaytadan o‘qitish yo‘li bilan to‘g‘rilash.

Amaldagi 2-sinf o‘qish darsligida badiiy adabiyotning lirik turlariga mansub bir talay matnlari berilgan bo‘lib, bu matnlar mustaqillik ruhini o‘zida aks ettirgan yoxud o‘tmish hayotidan olingan bo‘lsa-da, mustaqillik farzandini ruh va didiga mos, uning tarbiyasini to‘g‘ri shakllantirishga xizmat qila oladi. Ishda ushbu darslikda berilgan lirik turga mansub mavzularni baholikudurat yoritishga ahd qildik.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so‘ng boshlang‘ich sinflar uchun yangi dastur va darsliklar yaratildi. O‘qish dasturlarida badiiy asarni tahlil qilishga ko‘proq ahamiyat berilib, matn ustida ishlash yuzasidan xilma-xil topshiriq turlaridan, texnika vositalaridan foydalanishga ko‘proq e‘tibor berildi.

Badiiy asar quyidagi muhim metodik qoidalar asosida tahlil qilinadi:

1. Asar mazmunini tahlil qilish va to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakasini shakllantirish bir jarayonda boradi.

2. Asarning g‘oyaviy-tematik asoslarini uning obrazlari, syujet chizig‘i, qurilish va tasviriy vositalarini tushuntirish o‘quvchilarning shaxs sifatida umumiy kamol topishiga, bog‘lanishli nutqning o‘sishini ta‘minlaydi.

3. O‘quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish asar mazmunini ongli idrok etishning asosi va uni tahlil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

4. Sinfda o‘qish o‘quvchilarning bilish faoliyatini aktivlashtirish va atrof muhit haqidagi bilimlarni kengaytirish vositasi hisoblanadi.

Asarni tahlil qilishda uning hissiy ta‘sirini ham hisobga olish zarur. O‘quvchi matnni o‘qibgina qolmay, muallif hayajonlangan voqeadan hayajonlansin. Matnni tahlil qilishda o‘quvchilarda fikr uyg‘onsin, ularda estetik didni tarbiyalasin.

Boshlang‘ich sinflar “O‘qish kitobi”da turli janrdagi badiiy va ilmiy-ommabop maqolalar berilgan. Sizga ma‘lumki, badiiy asarda hayot obrazlar orqali aks ettiriladi. Uning markazida inson, uning tabiat va jamiyatga munosabati turadi. Badiiy asarda borliqni, voqelikni obrazlar vositasida tasvirlash, ob‘ektiv mazmun va sub‘ektiv bahoni aniq materialda berish haqidagi qoidalar metodika uchun katta nazariy-amaliy ahamiyatga ega. Birinchidan, asar ustida ishlashni muallifning

asarida tasvirlangan voqealarga munosabati o'qituvchining diqqat markazida turadi. O'quvchilar voqelikni obrazlar orqali tasvirlashning o'ziga xos xususiyatlarini asta tushuna boshlaydilar. Ikkinchidan, har qanday badiiy asarda aniq tarixiy voqelar tasvirlanadi. Asardagi voqealarga tarixiy yondoshilgandagina asarga haqqoniy baho berish mumkin. Uchinchidan, yozuvchining hayoti va qarashlari bilan o'quvchilarning yoshlariga mos ravishda tanishtirish maqsadga muvofiq. To'rtinchidan, badiiy asarni tahlil qilishda o'quvchilarni asarning g'oyaviy yo'nalishini tushunishga o'rgatish muhimdir.

Psixolog olimlarning ko'rsatishicha, badiiy asarni idrok etish uchun uni tushunishning o'zigina etarli emas. Asarni idrok etish murakkab jarayon bo'lib, asarga, unda tasvirlangan voqelikka qandaydir munosabatning yuzaga kelishini o'z ichiga oladi. Kichik yoshdagi o'quvchilar adabiy qahramonga ikki xil munosabatda bo'ladi.

1. Adabiy qahramonga emotsional munosabat.
2. Elementar tahlil qilish.

Asarda qatnashuvchi shaxslarga baho berishda o'quvchilar o'z shaxsiy tushunchalaridan foydalanadilar. Qaxramonning boshqa fazilatlarini baholash uchun ularda so'z boyligi, tajriba etishmaydi. O'qituvchining vazifasi o'quvchilar payqay olmagan sifatlarni ko'rsatish va o'quvchilar nutqiga kiritishdir. Yana bir narsaga e'tibor berish maqsadga muvofiq:

1.O'quvchilar asar qahramoniga munosabatlarini ifodalashda u harakat qilgan sharoitni hisobga olmaydilar.

2.Qahramonning nima uchun shunday qilishi kerakligini tushunolmaydilar, uning uchun maqsadga muvofiq ish olib borishlari zarur.

Badiiy asar ustida ishlash murakkab jarayon bo'lib o'qituvchi o'qish darslarining ta'lim-tarbiyaviy vazifalari badiiy asarning o'ziga xos xususiyatlari va o'quvchilarning tayyorgarligini hisobga olishni taqozo qiladi.

Badiiy asarda barcha komponentlar o'zaro bog'langan bo'ladi. Asarda obrazlar rivojlanib boradi. Voqealar rivojlanib borgan sari qaxramonlarning yangi-

yangi tomonlari ochila boradi. Bu xususiyatlari asar ustida ishlashda uni yaxlit o‘qishni, idrok etishni, ya’ni sintezni talab qiladi. Asar boshidan oxirigacha o‘qilgandan so‘ng analiz qilinadi, so‘ng yana yuqori sifatli sintezga o‘tiladi. Asarni o‘qishga kirishishdan oldin o‘quvchilarni badiiy asarni o‘qishga tayyorlash lozim bo‘ladi. Demak, tayyorgarlik davri – sintez-analiz-sintez jarayonini beradi.

O‘quvchilar asar mazmunini to‘g‘ri idrok etishlari uchun hayot haqida ma’lum tasavvurga ega bo‘lishlari zarur. Buning uchun tayyorgarlik ishlari o‘tkaziladi.

Tayyorgarlik ishlarining vazifalari:

1.O‘quvchilarning asarda aks ettirilgan voqea-hodisalar haqidagi tasavvurlarini boyitish, matnni ongli idrok qilishga ta’sir etadigan yangi ma’lumotlar berish, badiiy asarda tasvirlangan faktlarni o‘quvchilar o‘z hayotida kuzatishlari bilan bog‘lay olishlariga sharoit yaratish.

2.Yozuvchining hayoti bilan tanishtirish, yozuvchiga, uning hayotiga ijodiga qiziqish uyg‘otish.

3.O‘quvchilarni asarni emotsional idrok etishga tayyorlash.

4.Asar mazmunini tushunishga xalal beridigan so‘zlarning lug‘aviy ma’nolarini tushuntirishdan iborat.

Tayyorgarlik ishlarining shakllari xilma-xil bo‘lib, o‘qituvchi asar mazmunini va sharoitga qarab ish turini tanlaydi. Tayyorgarlik davri uchun 2-5 daqiqa ajratiladi.

Ekskursiya. Bu ish turidan tabiat tasviriga bag‘ishlangan yoki ishlab chiqarish, qurilish, shahar, qishoq hayotiga doir mavzular o‘rganilganda foydalanish mumkin. Chunonchi, 2-sinfda “Metropoliten”, 1-sinfda “Issiqxonada” kabi materiallarni o‘rganishdan oldin ekskursiya qilish maqsadga muvofiq. Ekskursiya uchun reja beriladi va matn o‘rganilishidan kamida bir hafta oldin o‘quvchilarga e’lon qilinadi.

Film namoyish qilish. Mustaqillikdan oldingi hayot voqealari tasvirlangan matnlardan oldin film namoyish qilinsa, o‘quvchilarning asarni idrok qilishlari

faollashadi. Albatta, hozir o'quv filmlari etarli emas. Ammo videofilmlardan foydalanish mumkin.

O'qituvchi hikoyasi. Asar muallifi haqida ma'lumot berishda eng samarali metod hisoblanadi. Chunonchi, 2-sinfda Hamza Imonberdiyevning "O'zbekistonim" she'ri o'rganilayotganda shoirning bolalar uchun yozgan asarlari namoyish etilib, ular haqida qisqacha ma'lumot so'zlab berilsa, o'quvchilarning asarni o'qishga qiziqishlari ortadi. Tayyorgarlik davridan so'ng 1-bosqich amalga oshiriladi. Bu bosqichning asosiy matnni yaxlit idrok etish jarayonida asarning aniq mazmuni bilan, uning syujet chizig'i bilan tanishtirish, asarning emotsional ta'sirini aniqlashdir.

Matn ifodali o'qib beriladi. (2-sinfda o'rganiladigan "Alisher bilan bulbul" asari matni magnitofon orqali o'qib eshittiriladi). O'qituvchi o'quvchilarga umumiy taassurotlarini aytishni talab qiladigan savollar beradi.

1. Hikoyani qaysi o'rni sizga yoqdi?
2. Qahramonlardan qaysi biri sizga ayniqsa yoqdi?
3. Hikoya o'qilganda siz qaysi o'rinda juda xursand bo'ldingiz? kabi savollar

beriladi

Badiiy asar ustida ishlashning 2-bosqichi tahlil qilishdir. Bu bosqichning vazifasi: syujet rivojining sabab natija bog'lanishini belgilash, ishtirok etish shaxslarning xulq-atvorini va asosiy xususiyatlarini aniqlash, asar kompozitsiyasini ochishdir. Tahlil jarayonida matn ustida ishlashning quyidagi turlaridan foydalaniladi.

Tanlab o'qish. Bunda o'quvchi matnning berilgan vazifaga mos qismini o'qiydi. Vazifa asarning faktik mazmunini oydinlashtirish, sabab-natija bog'lanishini belgilash, badiiy xususiyatini ochish, o'qilgan matnga o'z shaxsiy munosabatini ifodalashdan iborat bo'lishi mumkin.

Tanlab o'qish matn ustida ishlashning eng samarali usulidir. U o'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlarini o'stirish bilan ularning ijodiy tasavvurini, nutqi va zihnini o'stirishga yordam beradi.

Berilgan savolga o'z so'zi bilan javob berish.

Mashqning bu turi o'quvchilarda o'qilganlar yuzasidan muhokama yuritish ko'nikmasini o'stirishga, qatnashuvchi shaxslarni baholashga muallif tasvirlagan hayotiy lavhalar bilan asar g'oyasi o'rtasidagi bog'lanishni aniqlashga imkon beradi. Ishning bu turida beriladigan savollar ma'lum maqsadga yo'naltirilgan va muayyan izchillikda bo'lishi kerak. SHu bilan bir qatorda o'quvchilarning mustaqil fikrlashga o'rgatilishi lozim. Boshlang'ich sinf darsliklarida savollarga javob berish ish turiga katta o'rin berilgan. O'qituvchining vazifasi ana shu savollardan unumli foydalanish va ijodiy xarakterdagi savollarni ko'proq berishi talab etiladi.

O'quvchilarni savol berishga o'rgatish.

Metodistlarning fikricha, to'g'ri berilgan savolda yarim javob tayyor bo'ladi. O'quvchilar matnni ongli o'zlashtira olsalargina, u yuzasidan savol bera oladilar. O'quvchilarni savol berishni o'rgatishni 2-sinfdan boshlash maqsadga muvofiqdir. O'quvchilar albatta savolni matn mazmuni bilan bog'liq holda tuzishdan o'rganadilar. Keyinchalik muhokama va ijodiy savollar berishni ham o'zlashtirib oladilar.

Matnni tasvirlash. Matnni 2 xil tasvirlash mumkin:

- 1) so'z bilan tasvirlash;
- 2) grafik tasvirlash.

So'z bilan tasvirlash o'ziga xos murakkab ish turi bo'lib, unda manzarani so'z yordamida aniq qayta tiklash talab etiladi. Bunda so'zlarni aniq tanlashga e'tibor qaratiladi. Turli tabiat manzaralarini, qatnashuvchi kishilarning tashqi ko'rinishini, voqea sodir bo'lgan joylarni tasvirlash topshiriq qilib berilishi mumkin.

Matnni tasvirlashni darslikda berilgan rasmni matndagi shu rasmga mos qismini taqqoslab tasvirlashdan boshlash kerak.

Grafik tasvirlash ko'proq uyda bajariladi. Buning uchun o'quvchilar tasvirlanadigan matn qismini ajratadilar, uni diqqat bilan o'qib chiqadilar, mazmunini o'zlashtiradilar va unga mos rasm chizadilar.

Asar rejasini tuzish. Reja matn mazmunini ongli va chuqur tushunishga, asosiy fikrni ajratishda, voqealarning izchilligini belgilashda, matn qismlarining

o‘zaro bog‘lanishini tushunishda o‘quvchilarga yordam beradi. Reja ustida ishlash o‘quvchilar nutqi va tafakkurini o‘stiradi. Ular matnni mazmunan tugallangan qismlarga bo‘lishga va har bir qismning asosini topishga o‘rganadilar.

Reja tuzishga tayyorgarlik ishlari savod o‘rgatish davridayoq boshlanadi. Tayyorgarlik mashqining eng oddiy turi berilgan sarlavhalardan kichik matn mazmuniga mosini topib qo‘yish hisoblanadi. Bunday mashqqa o‘rgatishda o‘qituvchi sarlavha asosiy fikrni ifodalashini ta’kidlaydi, bolalar topgan sarlavhani tahlil qilib, u yoki bu sarlavha nima uchun mos yoki mos emasligini tushuntiradi. Reja tuzishga tayyorgarlik ishining 2-turi o‘qituvchi rahbarligida tanlab o‘qish hisoblanadi, bolalar matndan o‘qituvchi bergan savolga javob bo‘ladigan o‘rinni topib o‘qiydilar.

Reja tuzish osondan qiyinga tamoyili asosida asta murakkablashtirilib muayyan izchillikda o‘tkazib boriladi. 1-sinf o‘quvchilari o‘qilgan kichik matnga o‘qituvchi rahbarligida so‘roq gap tarzida sarlavha tanlash, 2-sinfda kichik maqolaning rejasini o‘qituvchi rahbarligida so‘roq yoki darak gap tarzida tuzish, 3-sinfda o‘qilgan matn rejasini jamoa bo‘lib tuzish, 4-sinfda mustaqil reja tuzish olishlari kerak.

Rejaning eng oddiy shakli rasmi reja hisoblanadi. Buning uchun avval bolalar kitobda berilgan rasmlardan matn qismiga mosini tanlashga va uni nomlashga o‘rgatiladi; keyin matn qismiga tayyor rasm berilmaydi, uni bolalarning o‘zlari so‘z bilan tasvirlaydilar; hikoya o‘qiladi va qismlari bo‘yicha taxlil qilinadi, so‘ng o‘quvchilar matnning 1-qismini o‘qiydilar, o‘qituvchi ulardan qanday rasm chizishni so‘raydi, ish mana shu tarzda davom etadi.

O‘quvchilar rasmi reja tuzishdan logik reja tuzishga o‘tadilar, logik reja tuzish quyidagi izchillikda o‘rgatiladi:

1.O‘qituvchi qismlarga bo‘lingan matn tanlab reja tuzadi va matn rejasini o‘rnini almashtirib, sarlavha tarzida xattaxtaning chap tomoniga yozib qo‘yadi. O‘quvchilar matnning 1-qismini o‘qiydilar, shu qism mazmuniga mos sarlavhani

topadilar, uni o'qituvchi xattaxtaning o'ng tomoniga yozadi, shunday qilib, xattaxtada o'qilgan matnning rejasi hosil bo'ladi.

2. Matn qismlarini tahlil qilish jarayonida o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida har bir qismdagi asosiy qismni aniqlaydilar va unga sarlavha topadilar, o'qituvchi sarlavhalarni reja tarzida xattaxtaga yozib boradi.

3. Qismlarga bo'linmagan matn tanlanadi, sarlavhalar matn rejasi tartibida xattaxtaga yoziladi. O'quvchilarga berilgan sarlavhalardan foydalanib, matnni qismlarga bo'lish topshiriladi. Ular matnni o'qiydilar, 1-sarlavhaga tegishli qismni ajratadilar, keyingi qism ham shunday belgilanadi.

Qismlarga bo'linmagan matn tanlanadi, sarlavhalar aralash tarzda xattaxtaga yoziladi. O'quvchilarga yuqori qismlarga bo'lish topshiriladi. O'quvchilar matnni o'qib nisbiy tugallangan qismni ajratadilar va unga mos sarlavhani xattaxtadan tanlaydilar. Ish shu tarzda davom ettirilib, matn rejasi tuziladi.

Reja tuzish uchun so'roq va darak gaplardan va ayrim hollarda atov gaplardan foydalanish mumkin, faqat har bir rejada bir turdagi gaplar ishlatilishi zarur.

Shunday qilib, o'quvchilarda matn ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirishda ular diqqati ishning mazmuni va bajarish yo'llariga qaratiladi.

2-§. Ikkinchi sinf o'qish darsliklarida lirik turga mansub asarlarning berilishi va ularning o'ziga xos xususiyatlari

Ikkinchi sinf o'qish darsligida lirik turga mansub Alisher Navoiyning "Yolg'onchi", Hamza Imonberdievning "O'zbekistonim", Narimon Orifjonovning "Vatan", Jumaniyoz Jabborovning "Istiqlol", Po'lat Mo'minning "Humo qushi", "Barcha bola do'st bo'lsa", "Ibn Shifo bobo – ulashar davo", "Dadam ishdan kelsalar", Erkin Vohidovning "O'lka", "Olma", "Gilos", Muxtor Xudoyqulovning "Sohibqiron bobomiz", "Mirzo Ulug'bek", Usmon Nosirning "Yur, tog'larga", Yo'ldosh Sulaymonning "Tilagim", Qambar Otaning "Bog'da", "Assalom", G'ani Abdullaevning "Mehnat", Rauf Tolibning "Orzular", Ibrohim Donishning "Inoqlikda gap katta", Tolib Yo'ldoshning "Vaqt qadri", "Ha" bilan "xo'p", Yusuf

Shomansurning “Muallim”, Qudrat Hikmatning “Kitob”, Ilyos Muslimning “Maktabdan kelganimda”, “Turnalar”, Quddus Muhammadiyning “Kitobimni qancha sevsam, oz bo‘lur”, “Bilim ol, hunar tanla”, Hamidulla Yoqubovning “Qaychi”, G‘iyos Komilovning “Arra g‘iz-g‘iz”, Shodi Sattorning “Qorboboning sarhisobi”, “Tabiat”, Shukur Sa‘dulaning “Qish”, Zokir Mo‘minjonning “Ko‘klam”, Eson Rahimovning “Hissang qo‘sh”, Uyg‘unning “Bahor”, Mirshakarning “Bolalar o‘ynasin deb”, Hilola Isoqovaning “Buvijonimga”, Firdavsiyning “Ona aziz”, Muhammad Alining “SHudring” asarlar berilgan. Lirik turga mansub bu asarlar mavzu jihatidan va qofiyalanishi, hijosi va turog‘i bilan turli-tumandir. She‘rlar barmoq va erkin vaznda bo‘lib, bolalarning yoshiga munosib tanlangan. O‘quvchilarni to‘g‘ri, tushunib va ifodali o‘qishga o‘rgatish, o‘qish darslarida tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish maktabning barcha bosqichlarida ham muhim vazifalaridan biri hisoblangan. O‘qish darslarida badiiy asarlar o‘qituvchi yoki o‘quvchilar tomonidan, ko‘pincha, to‘liq, ba‘zan parcha holda o‘qilishi va faqat matnga tayangan holda tahlil qilinishi lozim. Badiiy asarlar bevosita o‘quvchilarning o‘zlari tomonidan idrok etilishiga katta e‘tibor berilishi kerak. O‘quvchini o‘qitishga emas, balki uni o‘qimasa turolmaydigan ruhiy-pedagogik holatga keltirishga urinish lozim.

Boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilari badiiy asar matni ustida ishlashning rang-barang usullaridan foydalana olishlari kerak. O‘qituvchi muayyan asar tahlili yuzasidan sinfdagi barcha o‘quvchilarning bir xil xulosa chiqarishiga intilmasligi kerak.

Hozirgi kunda maktablarda o‘quvchilarimiz asarni tahlil qilish malakasini qiyinchilik bilan egallamoqdalar. Buning asosiy sababi, birinchidan, badiiy asarning, san‘at namunasi, ikkinchidan, adabiyotshunoslikka dahldor bo‘lishidir.

Maktabda badiiy asar matni ustida olib boriladigan ishdagi eng muhim va asosiy masala o‘quvchilarda asarni badiiy tasavvur etish uchun zarur bo‘lgan ijodiy qobiliyat va kitobxonlik madaniyatini o‘stirib borishdan iborat. Mana shu ikki

masalani hal qilmay turib ularda uzluksiz mustaqil ish ko'nikmalarini taraqqiy ettirib bo'lmaydi.

Asar tahliliga kirishishda o'quvchidan quyidagi uch masalaga e'tibor berish talab qilinadi:

A) tahlilning mazmun va maqsadiga;

B) darsni tashkil qilishga (materiallarni o'tish – o'rganish darslarini belgilashga, mashg'ulot tartibiga);

V) o'quvchilarning emotsionallikni anglash faoliyatini o'stirish, asarga qiziqtirish, ilmiy-badiiy bilimlarni o'stirish, asarni o'qish ko'nikmalarini taraqqiy ettirish usullarini aniqlab olishga.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining to'g'ri tushunib va belgilangan me'yorda ifodali o'qish malakalari yaxshi rivojlansa, ta'limning keyingi bosqichlarida muvaffaqiyatlarga erishadilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qishni o'rgatish ularga tarbiyaviy ta'sir etish bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

Ma'lumki, o'tmishdagi maktablarda ham ta'lim-tarbiya birligi asosiy diqqat-e'tiborda bo'lgan. SHuning uchun ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan asarlar o'qishga keng o'rin berilgan.

Etuk metodist olim Y. Abdullayevning yozishicha, eski o'zbek maktablarida o'quvchilarning xat-savodlari chiqqandan keyin «Haftiyak», «Qur'on», «Chorkitob» mutolaa qilganlar. Arab, fors, tilidagi ana shu kitoblarni o'qib bo'lganlaridan keyin esa Ahmad Yassaviy, So'fi Ollayor, Alisher Navoiyning o'zbek tilidagi kitoblaridan o'qiganlar.

Umuman, o'qish, o'rganish zarurligi, uning ahamiyati juda ko'p ta'kidlangan. Lekin bu maqsadga erishish yo'llari, ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qishni o'rgatish, o'qish malakalarini shakllantirish masalalari ko'rsatilmagan. Bu o'rinda shuni ham eslash o'rinliki, inqilobdan keyingi yillarda boshlang'ich sinf o'qituvchilari tayyorlaydigan kurslarda va keyinchalik pedagogika bilim yurtlarida ham asosan rus tilidagi metodik qo'llanmalardan foydalanilgan.

Rus tilidagi metodik qo'llanmalar va rus metodistlari haqida fikr yuritadigan bo'lsak, XIX asrning 60- yillarida K.D.Ushinskiy boshlang'ich ta'lim masalasiga zo'r qiziqish bilan qaragan. U metodikaga birinchi bo'lib «izohli o'qish» tushunchasini kiritgan. Izohli o'qish deganda, Ushinskiy bolalarning o'qiganlari ma'nosini tushunishlari, o'quvchilar ongida aniq tasavvurlar hosil bo'lishi, fikrlash faoliyatlarini o'stirishni nazarda tutgan. O'qishni o'rgatishni maktabning bosh vazifasi hisoblagan. Shuningdek, bolalarga hayotiy bilimlar berish zarurligini ham ta'kidlagan. U nutq va fikr aloqadorligiga, ta'lim-tarbiya birligiga, o'qish darslarida o'quvchilarni aqliy jihatdan tarbiyalash masalasiga alohida to'xtalgan.

O'qituvchi o'quvchilarga o'qishni o'rgatish bilan bir vaqtda turli narsalar va ko'rgazmali qurollar yordamida ularning tasavvur-tushunchalarini kengaytiradi. O'qilgan badiiy asardagi obrazlar namunasida tarbiyaviy ta'sir o'tkazadi. Ana shularni hisobga olib, Ushinskiy o'z davri sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qishni o'rgatish jarayonida ta'lim-tarbiya birligi masalalarini ishlab chiqqan.

N.F.Bunakov Ushinskiyning ta'limda o'stiruvchanlik g'oyasini rivojlantirdi va shu bilan o'quvchilarni ta'lim jarayonida mustaqil fikrlashga o'rgatish zarurligini ko'rsatdi. Tixomirov o'qish jarayonida badiiy asarni sezgi orqali his etish kerakligini ta'kidladi. U badiiy asarni mantiqiy tahlil asosida bergan. Lekin o'quvchilarning asardagi o'zlashtirishlariga etarlicha e'tibor bermagan, inqilobga qadar bo'lgan rus metodistlari darslarning tarbiyaviy ahamiyatini to'g'ri baholaganlar. Ana shu nuqtai nazardan ularning fikrlari o'tmishdagi o'zbek (turkiy) maktabi muallimlari fikrlariga yaqin turadi.

Rus metodistlarining fikrlarini umumlashtirganda ulardan o'qish darslari uchun o'quvchilarga tushunarli bo'lgan manbalar olish kerakligi, o'qishni o'rgatish bilan bir vaqtda tarbiyaviy ta'sir etishga e'tibor berish, o'qishga o'rgatish jarayonida o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlari va lug'atini boyitish, o'qilgan asar mazmunini qayta hikoyalashga alohida o'rin ajratish va o'qilgan asar rejasini tuzish singari jihatlarini hisobga olish o'rinlidir.

She'riy asarlar tahlili lirikaning adabiy tur sifatida o'ziga xos xususiyatlari va vazifasidan kelib chiqib olib borilganda samarali bo'lishi qayta-qayta sinovlardan o'tib o'z tasdig'ini topgan. Lirik asarlarning boshqa turdagi asarlardan fikri shundaki, undagi har bir so'z va hatto tovush, qaynoq hissiyot ma'noni quyushtirishga qaratiladi, ta'bir joiz bo'lsa, shoir fikrini hikmat darajasiga ko'tarish vazifasiga bo'ysundiriladi.

She'r kundalik hayotdagi hammamizga tanish oddiy voqea-hodisalarning shunchaki ifodasi bo'lmay, favqulotda holat, jo'shqin hissiyot natijasi va hayajonli tafakkur mahsulidir. Uning fikrlar qaymog'i bo'lishiga ko'ra hikmatga, ko'ngilga yo'l topish jihatidan musiqaga qiyoslanishi bejiz emas. "So'zda sehr bor, she'rda esa hikmat", deyiladi Hadisda.

Lirik asar ko'pincha shoirning tarjimai holiga aloqador arzi hol, lahzalik ko'ngil izhori sifatida taasurot qoldirgani uchun muallif hissiyoti, hayajoni to'g'ridan to'g'ri, hech qanday vositasiz yolg'iz uning o'zigagina daxldordek qabul qilinadi. Aslida she'r umuminsoniy hissiyot va hayajon ifodasidir. SHuning uchun u shoirning o'zinigina emas, kitobxonni ham befarq qoldirmaydi.

Lirik asar tahlilida poetik fikr o'qituvchi diqqat markazida turishi kerak. Bu, she'r matnini qayta bayon qilishni anglatmaydi. Balki she'rdagi har bir so'z, sintaktik shakl va ohangni yaxlitlikda o'rgatish zaruratidan kelib chiqqandir.

Zero, she'riyatdagi xususiylikda – umumiylik, lahzada – abadiylik, alohidalikda umuminsoniylik hukmronlik qiladi.

Poetik ohangni his qilmaslik, matn so'zlarini to'la tushunib etmaslik she'r yodlashga zerikarli mashg'ulotga aylantiradi. Ma'nosi anglanmagan matnni yodlash esa oson kechmaydi.

Bolalar she'r yodlashga boshlang'ich sinflardan o'rgatilsa-da, amalda bitta she'rni to'la yoddan aytolmaydigan o'quvchilar ham talaygina.

Buning uchun bola emas, ko'proq o'qituvchi aybdor. Chunki dasturga binoan o'qib o'rganiladigan she'rlarni o'quvchilarning hammasi tushunmasligi mumkin emas. Demak, o'qituvchi bolalarni adabiyot, jumladan, she'riyat bilan chuqur tanishtirish metodlarini izlashi lozim. Bola she'riyatning inson baxti, quvonch shodliklari, g'am-g'ussasi, qalb iztiroblari bilan chambarchas bog'liqligi, shu xildagi kechinmalarning badiiy ifodasi ekanini tushunib etgandagina so'z san'atining bu turiga nisbatan faol munosabatda bo'ladi. Aks holda o'quvchida she'riyatga nisbatan loqaydik tug'iladi va bu narsa uning nafaqat so'z san'ati, balki go'zallik haqidagi umumiy tushunchalariga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'zining baxti ham, baxtsizligi ham umuminsonga xosligini anglab etgan kishigina yirik harflar bilan yoziladigan shaxs darajasiga ko'tariladi.

Ikkinchi sinf o'qish darsligida lirikaning barmoq vazniga oid she'rlar berilgan bo'lib, bu asarlar qofiyasi aksariyat o'zbek she'riyatida keng o'rin olgan a-b-a-b, a-a-b-a, a-a-a-b, a-a-b-b shaklida qofiyalangan.

Hamza Imonberdievning "O'zbekiston" she'ri:

Sog'inch bilan

Tonglari otar,

Erkalanib

Tog'lari yotar.

She'r a-b-v-b tarzida qofiyalangan. She'r matni ustida ishlangandan so'ng o'qituvchi tomonidan bo'ston, guliston, erkasi so'zlariga ohang jihatdan mos keluvchi qofiyadosh so'zlarni topish aytiladi. O'quvchilar yuqoridagi so'zlarga mos keluvchi doston, O'zbekiston, ertasi so'zlarini she'r matnidan topadilar. Bilimlarni kengaytirish maqsadida o'qituvchi nola-xola, qovun-sovun, tong-bong, olma-solma kabi ohangdosh so'zlar ustida o'quvchilar bilan ish olib boradi.

Jumaniyoz Jabborovning "Istiqlol" she'ri:

Mustaqillik ne demak,

Ne demakdir Istiqlol?

Buni bilmog‘ing kerak,

Ma’nosini dilga sol.

She’r birinchi to‘rtligi a-b-a-b tarzida qofiyalangan: demak-kerak, Istiqlol-sol so‘zlari o‘zaro qofiyalangan bo‘lib, keyingi misralarida a-a-a-a tarzidagi qofiyalanish tartibi ham uchraydi:

O‘z yurtiing – er-samosi,

Shahri gulshan, ma’vosi,

Tongda esgan sabasi,

Tog‘i, bog‘i, daryosi.

Ba’zan she’r ichida – misrada ham tog‘i-bog‘i kabi o‘zaro qofiyadosh so‘zlar ham keltirilishi mumkinki, bu she’rning ohangdorligini yanada kuchaytiradi. Bu o‘rinlardan o‘qituvchi ziyraklik bilan foydalanmog‘i lozim.

Sevimli shoirimiz Erkin Vohidovning “Olma” she’ri:

Men sizlarning olmangiz.

Xomligimda olmangiz.

Nortojiga o‘xshab so‘ng

Voy qornim, deb qolmangiz.

She’r a-a-b-a shaklida qofiyalanib, olmangiz, olmangiz, qolmangiz so‘zlari ohangdoshlikni tashkil etgan. Olmangiz so‘zi omonim so‘zlar vositasida qofiya yaratish bo‘lib, bolalardan o‘ta hushyorlikni talab etadi. O‘quvchilar bu o‘rinda birinchi olmangiz meva, ikkinchi olmangiz harakat ekanligini his etadilar va shakldoshlik haqidagi ilk taassurotlarini o‘rtoqlashadilar. Bunday qofiya keyinchalik –yuqori sinfda tajnisli qofiya, deb nomlanadi. Shu o‘rinda sol, o‘t, oshiq kabi shakldosh so‘zlar ustida ishlansa, bu doiradagi bilimlar ancha mustahkamlanadi.

Ikkinchi sinfda Qambar Otaning bir necha she’rlari qatori “Bog‘da” nomli she’ri ham berilgan.

Maktabimiz bog‘ida

Mehnat qildik hammamiz.

Naq oltin kuz chogʻida

Pishdi behi, olmamiz.

Savat-savat terdik biz

Uzum, shaftoli, anor.

Hosilidan yorugʻ yuz

Dillar yayrab quvonar.

Sheʼr a-b-a-b tarzida qofiyalangan, bogʻida-chogʻida, hammamiz-olmamiz, biz-yuz, anor-quvonar soʻzlari oʻzaro ohangdosh boʻlib kelgan. Oʻqituvchi oʻquvchilarga sheʼrdagi soʻzlarga boshqa ohangdosh soʻzlarni toptirish orqali ham ularning qofiyadoshlik yuzasidan bilimlarini oshirishi mumkin: bogʻida-sogʻida, hammamiz-ammamiz, biz-tuz, anor-yonar.

Boshlangʻich sinfda sheʼr qofiyasi ustida ishlash oʻquvchining soʻzga hushyorligini, topqirligini oshiradi, sheʼriy nutqning goʻzalligini sezish va sevishga oʻrgatadi.

3-§. Lirik turga mansub asarlarni oʻqitishda sheʼr nazariyasi haqida bilimlar berish yoʻllari

Ikkinchi sinf darsligida yuqorida sanab oʻtganimiz – lirik turga mansub asarlar tuzilishiga koʻra rang-barangdir. Shularda biri – Quddus Muhammadiyning “Bilim ol, hunar tanla” sheʼri:

Bilim ol, hunar tanla

Quddus Muhammadiy.

Vatanning kutar seni,

Oʻgʻlim, yaxshi bilib qoʻy!

Baxt yoʻliga boshlovchi

Kitobingga mehr qoʻy.

Chin bilim choʻqqisiga,

Sinchiklab atrofga boq!

Kel, der daryo, tik tog‘lar,
Xazinam ol, ey o‘rtoq!
Muntazirlar yo‘lingga,
Ko‘z tikib erta-yu kech.
Quyosh chiqar, Oy chiqar,
Go‘yo der: Nurimiz ich.
Kel, ey bilimdon mard,
Bizni tezroq egalla!
Deb turgandek hamma yoq,
Bilim ol, hunar tanla!

She‘r – ohang jihatidan ma‘lum bir tartibga solingan, his-tuyg‘u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutq. She‘riy nutqni ohang jihatidan ma‘lum bir tartibga solish vositalari ritm (bir-biriga monand kichik bo‘laklarning izchil va bir me‘yorda takrorlanib kelishi) va qofiya (misralarning oxirida keladigan ohangdosh so‘zlar) hisoblanadi.

She‘rni o‘qiganda kichik yoshdagi o‘quvchilar tabiat va jamiyat voqea-hodisalarini poetik tasviridan hayajonlanishlari muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinflarda she‘r tarzida yozilgan hikoyalar, ya‘ni she‘riy hikoyalar va lirik she‘rlar o‘qitiladi. She‘riy hikoyada syujet, ya‘ni voqealar sistemasi va uning rivoji xarakterlidir. Lirik she‘r “biror hayotiy voqea-hodisa ta‘sirida insonda tug‘ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg‘ular orqali turmushni aks ettiradi”. Lirik she‘rning xususiyati “kishining his-tuyg‘uga to‘la hayajonli nutqini ta‘sirliroq ifodalashga to‘g‘ri keladi”. Bunda “ohangdorlik va musiqiylikni vujudga keltiradi”.

She‘rni o‘qish darslarida asosiy ish turi ifodali o‘qish hisoblanadi. O‘quvchi she‘rning asosiy (g‘oyaviy) mazmunini tushunsagina, uni ifodali o‘qiy oladi. Shuning uchun she‘rni tahlil qilib, uning mazmunini o‘quvchilarga tushuntirish lozim. She‘riy hikoyani tahlil qilishda, asosan, hikoya, ertak, masalni tahlil qilinganidagi ish turlaridan foydalanish mumkin. Tursunboy Adashboyevning

“Navoiy bobomlar” she’riy hikoyasi mazmuni savollar yordamida gapirtirilishi mumkin. Ammo lirik she’rni o’qish va tahlil qilish o’qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Lirik she’rni o’qish darsida eng asosiy ish turi uni his-hayajon bilan ifodali o’qishdir. She’r ifodali o’qilgach, undagi tushuntirilishi zarur bo’lgan so’z va iboralar ikki-uch so’z bilan qisqacha izohlanadi.

She’rni o’qishdan oldin ba’zan unda tasvirlangan yil fasllari haqida suhbat o’tkaziladi yoki she’r mazmunini tushunish uchun o’quvchilar bilishi lozim bo’lgan voqealarni o’qituvchi qisqa aytib beradi. Ba’zi she’rlarni o’qishga o’quvchilarni uzoqroq tayyorlash, masalan, Quadrat Hikmatning “Qish”, “Bahor” she’rlarini o’qishdan oldinroq tabiatni kuzatish, boqqa, qir-adirlarga ekskursiya o’tkazish maqsadga muvofiq.

Boshlang’ich sinflarda ko’rgazmali ta’limning asosiy formasi lirik she’rni ifodali o’qish hisoblanadi. Lirik she’rni ham, she’riy hikoyani ham o’quvchilar hayajon bilan yaxlit idrok etishlariga erishish muhimdir, uning uchun she’r birinchi marta o’qilganda, hech qanday tushuntirish berilmaydi. She’r o’quvchilarga qanday ta’sir qilganini hisobga olish, bilish zarur. O’qituvchi she’rni shunday ifodali o’qishi kerakki, bolalar uning asosiy mazmunini anglasinlar, ularga jonli so’z kuchliroq ta’sir etsin. O’qish oddiy bo’lishi kerak. O’qiyotganda tabiiy zavq-shavq, shodlik, xursandlik, qahr-g’azab hissini qichqiriq ovoz bilan soxta ifodalashga yo’l qo’ymaslik zarur. Bolalar she’rni o’qiganda, she’riy satrga rioya qilishlari, she’r ritmini buzmasliklariga erishish lozim.

She’r mazmuni ham, boshqa janrdagi badiiy asarlar kabi, savollar asosida tahlil qilinadi. Ammo she’r mazmuni haqida o’quvchilarga ko’p savol berish tavsiya etilmaydi. O’quvchilarga she’rning asosiy mazmunini tushunganliklariga ishonch hosil qilishning o’zi kifoya. Masalan, o’quvchilari Quadrat Hikmatning “Qish to’zg’itar momiq par” she’rni o’qiganda, “Qaysi fasl haqida o’qidingiz?” savoliga javob berishlari etarli; o’quvchilari shu shoirning “Bahor” she’rini o’qiganda, o’qituvchi: “She’rda yilning qaysi fasli haqida o’qidingiz? (Bahor)”. “SHamol haqida nima deyiladi? Terak, bedapoya, qushlar haqida-chi?” savollarini

beradi. Shuni ham aytish kerakki, bolalar hayoti, ularning o'ziga xos fikrlari, his-tuyg'ulari, qiziqishlarini ifodalovchi, shuningdek zamonamiz qahramonlari, o'zbek xalqi Vatan himoyasi, xalqimizning qahramonona ishlari haqidagi she'rlar mazmunini to'laroq taxlil qilish talab etiladi. Bunday she'rlarni o'qishga o'quvchilarni maxsus tayyorlanadi: she'r mazmuniga asos bo'lgan tarixiy voqea haqida qisqa so'zlab beriladi yoki suhbat o'tkaziladi.

Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan ko'pgina she'rlarni tahlil qilib, ifodali o'qish mashq qilingach, ifodali yod aytib berish vazifasi topshiriladi (o'quvchilar darsda ifodali o'qimagan she'rni uyda ifodali yod aytib berishga tayyorlanishni tavsiya etilmaydi).

Bolalar she'rni yoqtiradilar. She'riy nutq engil yodlab olinadi, estetik his-tuyg'u uyg'otadi, kichik yoshdagi o'quvchilar saviyasiga mos bolalarbop ravshan til bilan yozilgan sodda ritmli jarangdor she'rlarni bolalar tez va oson yodlab oladilar, keyin yoddan ifodali o'qiydilar.

Kichik yoshdagi o'quvchilarga she'rni qanday yodlash kerakligi o'rgatiladi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan she'rni teng satrli bir necha qismga bo'ladi. O'quvchilarga har bir satr oxirida ritmik pauza qilish, buning uchun satr oxirida tinish belgi bo'lishi shart emasligi, ritmik pauzada ovozni nuqtadagi kabi pasaytirmaslik lozimligi, bu tugallanmagan fikrni davom ettirishga imkon berishi va bo'lingan qismlar navbati bilan yodlatiladi.

Quddus Muhammadiyning "Bilim ol, hunar tanla" she'rini izohli o'qish darsining varianti sxemasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1) she'r mazmunini yaxlit idrok etish uchun uni ifodali o'qib berish (birinchi sintez);

2) She'rda tasvirlangan his-tuyg'ular haqida suhbat (analiz):

3) she'rni ifodali o'qishni mashq qilish (ikkinchi sintez);

4) uyda she'rni ifodali o'qish va yod aytib berishga tayyorlanish;

5) keyingi darsda she'rni ifodali o'qitish, ifodali yoddan aytirish.

"Bilim ol, hunar tanla" she'ri yuzasidan savol va topshiriqlar:

Savollar:

1. Vatanga munosib farzand bo‘lish uchun nima qilish kerak?
2. Shoir kitobni nima uchun “Baxt yo‘liga boshlovchi” deb ataydi?
3. “Kitob – bilim manbai”, “Hunar, hunardan unar” maqollarini she‘r

mazmuni asosida izohlang.

4. Kitob va hunar haqida yana qanday maqol, topishmoqlarni bilasiz?

Yuqoridagi savollarga javob olgach, she‘r matni ustida quyidagicha ish olib borishni tavsiya qilamiz.

1. She‘rdagi qofiyadosh so‘zlarni aniqlang.

She‘rdagi qofiyadosh so‘zlar: boq – o‘rtoq; kech – ich; egalla – tanla.

2. She‘rning qofiyalanish tartibi qanday?

She‘rning qofiyalanish tartibi: a-b-d-b.

Shu o‘rinda qofiya haqidagi bilimlar yana bir bor esga olinsa ishning samarasi yana ham oshadi.

3. She‘r hijosini aniqlang.

She‘r hijosi:

Va-ta-ning ku-tar se-ni,
O‘g‘-lim, yax-shi bi-lib qo‘y!
Baxt yo‘-li-ga bosh-lov-chi
Ki-to-bing-ga mehr qo‘y.

She‘r yetti hijoli.

4. She‘rdagi qaysi so‘zlar ko‘chma ma’noda ishlatilgan?

She‘rdagi quyidagi so‘zlar ko‘chma ma’noda ishlatilgan: boshlovchi, bilim cho‘qqisi, xazina ol, nurimiz ich.

Ma’lumki, so‘zning yangi ma’no kasb etishi – ko‘chma ma’noda qo‘llanilishi biron bir ob’ektiv sabablar asosida ro‘y beradi. Bunda ma’lum narsa, belgi, harakat bildiruvchi so‘z qandaydir o‘xshashlik, o‘zaro aloqadorlik, bog‘liqlik, vazifadoshlik kabilar asosida boshqa bir narsa, belgi, harakatni ham ataydigan

bo‘lib qoladi, uning ham nomi sifatida ishlatila boshlaydi. Ma’no ko‘chirilishining metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik degan turlari mavjud.

Hamidulla Yoqubovning “Qaychi” she’rida qofiya va hijoning o‘zgacha ko‘rinishi ifodalanadi:

– Qaychi, qaychi,
Bizga ayt-chi,
O‘z ishingdan ozgina,
Ozgina-yu, sozgina.
– Po‘lat badan,
Qo‘shaloq tan,
Qulay o‘tkir asbobman,
Ko‘mak berishga borman.
Goh ochilib,
Goh yopilib –
O‘ynayman chevar qo‘lda,
Mehnatni sevar qo‘lda.
– Jon qaychimiz,
Har qaysimiz
Qadrlaymiz albatta,
Bizga xizimating katta.

She’r to‘rt va etti hijoli bo‘lib:

– Qay-chi, qay-chi,
Biz-ga ayt-chi,
O‘z i-shing-dan oz-gi-na,
Oz-gi-na-yu, soz-gi-na.

Qofiyalanishi quyidagicha: a-a-b-b. Qaychi – ayt-chi; ozgina – sozgina; badan – tan; asbobman – borman; ochilib – yopilib; chevar – sevar; qaychimiz – qaysimiz; albatta – katta. Hatto she’r ohangdorligini oshiruvchi yana bir vosita – takror (qo‘lda) so‘zi ham ishlatilgan.

G'iyos Komilovning "Arra g'iz-g'iz" she'rida she'r ohangdorligini oshiruvchi takror "arra g'iz-g'iz" so'z uch marotaba ishlatilgan:

Tolmi, terak

Yo qayin,

O'tin bo'lar

Zum sayin:

Arra g'iz-g'iz,

Arra g'iz-g'iz.

Sen tort, men tort

Qilmaymiz,

Charchash nima –

Bilmaymiz:

Arra g'iz-g'iz,

Arra g'iz-g'iz.

Uyum-uyum –

O'tin er;

YUzimizda –

Marjon ter:

Arra g'iz-g'iz,

Arra g'iz-g'iz.

She'rning hijolanishi 4+3+4+3+4+4 bo'lib kelgan:

Tol-mi, te-rak

Yo qa-yin,

O'-tin bo'-lar

Zum sa-yin:

Ar-ra g'iz-g'iz,

Ar-ra g'iz-g'iz.

Yoshlar o'qishda va mehnat jarayonida nimagaki erishsalar, aql-zakovat, kuch va bilim bilan olg'a intilish tufayli erishadilar. SHubha yo'qki, bunda nutq odobi,

ona tiliga e'tibor va hurmat asosiy o'rinni egallaydi. Negaki, bebaho va go'zal merosimiz, tariximiz butun jahonga ona tili orqali ko'zko'zlanadi. Til vositasida kishining odob-axloqi, madaniyati, kamoloti aks etadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maskanlarida davlat tili orqali yoshlarni bugungi kunimizga mos odobli, yuksak madaniyatli qilib, ona Vatanga, ona tiliga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash pedagogik jamoalarning eng muhim vazifalaridan biri bo'lmog'i lozim.

4-§. Lirik turga mansub asarlarni o'qitishda badiiy tasvir vositalari ustida ishlash metodlari

Ikkinchi sinf o'quvchilariga dastur talabiga ko'ra badiiy tasvir vositalaridan o'xshatish, jonlantirish va sifatlash amaliy o'rgatib boriladi.

O'xshatish – narsa, hodisa yoki tushunchani ma'lum umumiylikka, o'xshashlikka ega bo'lgan boshqa narsa, hodisa yoki tushuncha bilan chog'ishtiradi. O'xshatish to'g'ridan to'g'ri o'xshash tomonni ko'rsatish bilan yoki -dek, -day, o'xshash, xuddi, go'yo, misli, misoli, singari, yanglig' so'zlari yordamida tuziladi (10-262).

Jonlantirish – badiiy tasvir usullaridan biri bo'lib, insonga xos qobiliyat va xususiyatlarni: so'zlash, his qilish, fikrlash va hokazolarni hayvonlar, jonsiz narsalar va tabiat hodisalariga taqishdan iboratdir (10-59).

Sifatlash – tushuncha, hodisa va kishining ma'lum bir xususiyati va sifatini aniqlab, izohlab, xarakterlab beruvchi so'z (10-205)

Bu vositalar darslikda talay uchraydi.

Erkin Vohidovning “Gilos” she'ri:

Men gilosman quloq sol,
Rangim yoqut, totim bol.
Topsang qo'shalog'imni
Qulog'ingga taqib ol.

She'rda yoqut, bol so'zlar o'xshatish bo'lib, o'z ma'nosidan ko'chgan, ya'ni ko'p ma'nolilik hosil qilgan. Yoqut eng qimmatbaho tosh bo'lib, u afsonalarga

ko‘ra juda kam uchraydi va kam odamlarga nasib etadi. She‘rda yoqut gilosning rangi sifatida tasvirlansa, mazasi bol – asal tasvirida berilgan. Ma‘lumki, bol ham noyob bo‘lib, ming dardga davo hisoblanadi. Bolning ta‘rifi tillarda doston-u, yellarda bo‘ston sarhisobi sanaladi.

She‘r ifodali o‘qilgach, qofiya, hijo ustida ishlanadi va tasvir vositalarini aniqlash maqsadida quyidagi savol-javob ishlari amalga oshiriladi:

1. She‘rda qaysi meva tilga olingan?
2. Gilosning mazasi qanaqa?
3. Bog‘ingizdagi gilosning tavsirini so‘z bilan ifodalang.
4. Mustaqilligimizning 20 yilligiga necha tup mevali va manzarali daraxtlar ekdingiz?
5. Shoir gilosni yoqut va bolga o‘xshatyapti, siz bu mevani yana qanday ta‘riflaysiz?
6. Gilosning rasmini uyda chiza olasizmi? CHizishda qaysi ranglardan ko‘proq foydalangan bo‘lar edingiz?

O‘quvchilar bilan bu kabi ishlar ularning tasavvurida o‘xshatish badiiy san‘atini asta-sekin shakllantira boradi, bolalarning badiiylikka oshno etadi.

Ikkinchi sinf darsligida Yusuf Shomansurning “Muallim” she‘ri berilgan.

Ko‘z o‘ngimda

Ochdi dunyo

Muallim.

Yo‘llaringa

Sochdi ziyo

Muallim.

Ona kabi

Parvarishlab,

Ulg‘aytirdi

Meni dono

Muallim.

Shogirdmanki
Taxt turaman
Xizmatiga,
Qilsa agar
Bitta imo
Muallim.

She'r barchaning ustoz muallim haqida bo'lib, asosan ko'chma ma'noli so'zlardan tuzilgan. Kishining ko'z o'ngida dunyoning ko'z ochishi badiiy tasvir bo'lib, o'xshatishga asoslangan badiiylkdir. Kishi olamni tasavvuriga singdirishi uchun u haqda keng va yorug' ma'lumotga ega bo'lmog'i lozim. Kishi o'z dunyoqarashini kengaytirs, olamning rangi yanada munavvar bo'ladi. O'quvchi ko'z o'ngida muallim shu vazifani sabot bilan bajaradi va bir umrlik tasavvuriga zamin yaratadi.

Ona kabi so'zi o'xshatish bo'lib, ko'makchi vositasida hosil qilingan. SHu o'rinda ko'makchi bilan vazifadosh so'zlar ustida ishlanadi: onadek, onaday, ona misol, ona yanglig'. O'quvchilar bu o'rinda yuqoridagi kabi so'zlar va -dek, -day qo'shimchasi bilan o'xshatish yaratilishini nazariy hamda amaliy bilib oladilar.

She'rdagi dono so'z sifatlash bo'lib, narsa-predmetlar sifatlar hamda belgisi bilan nom qozongan otlar bilan ifodalanadi. Bahor kelinchakka o'xshatilsa, yamyashil, ko'm-ko'k, zumrad kabi sifatlashlar bilan ta'riflanadi.

She'rni o'zlashtirish mobaynida muallimni mehribon, aziz, dono, fidoyi, zahmatkash kabi sifatlar bilan tarannum etish mumkin. Muallimni quyoshga, oyga, zaminga qiyos etish maqsadga muvofiqdir.

Zokir Mo'minjonning "Ko'klam" she'ri ham tasvir vositalariga o'ta boy.

Beg'ubor olam
Bunchalar ko'rkam!
Musaffo, tiniq
Osmon juda ham.
Nurga ko'milib,

Yashnaydi o‘lkam.
Chunki elimda
Kezmoqda ko‘klam.

She’r o‘qituvchi va o‘quvchilar tomonidan ifodali o‘qilgach, qofiya ustida ishlanadi: olam, ko‘rkam, ham, o‘lkam, ko‘klam.

She’r besh hijoli bo‘lib, quyidagicha hijolangan:

Be-g‘u-bor o-lam
Bun-cha-lar ko‘r-kam!
Mu-saf-fo, ti-niq
Os-mon ju-da ham.
Nur-ga ko‘-mi-lib,
Yash-nay-di o‘l-kam.
Chun-ki e-lim-da
Kez-moq-da ko‘k-lam.

She’rda beg‘ubor olam, musaffo osmon, tiniq osmon kabi sifatlashlar ishlatilgan bo‘lib, predmetning sifatini yanada ochiq namoyon etmoqda. Nurga ko‘milib, kezmoqda ko‘klam kabi ifodalar jonlashtirish bo‘lib, jonsiz narsalarga insonga xos harakatlar berilgan. Ma’lumki, ikkinchi sinf o‘quvchisi jonlantirish san’atini juda osonlik bilan aniqlaydilar. Ularga ishning dastlabki qismida jonsiz narsalar qaysi harakatga o‘xshab jonlantirilayotganlarini taqqoslatib toptirish kifoya.

Ikkinchi sinf o‘quvchilariga badiiy tasvir vositalaridan o‘xshatish, jonlantirish, sifatlash kabi san’atlarni asardan toptirish va o‘quvchilarda his ettirib borish badiiy didlarini o‘stirish barobarida ularni kelajagi buyuk DAVLATning barkamol shaxsi qilib tarbiyalaydi, deb ishonch bildiramiz.

**Xulosa. Ikkinchi sinf o‘qish dasrligidagi lirik turga mansub asarlarni
o‘qitish orqali o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash**

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining to‘g‘ri tushunib va belgilangan me’yorda ifodali o‘qish malakalari yaxshi rivojlansa, ta’limning keyingi bosqichlarida muvaffaqiyatlarga erishadilar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘qishni o‘rgatish ularga tarbiyaviy ta’sir etish bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi. Bu ishlarni amalga oshirishda lirik asarlarni o‘qitish hammamizga namuna bo‘la oladi. Darslikdagi shoirlarning asarlari qatori ularning o‘z hayotiy faoliyati ham hamma uchun o‘rnak bo‘larlidir. Zamonlar o‘taveradi, lekin xalq qalbini zabt etgan donishmandlar mangu yashaydi. Ularning hayot va ijodlari barchaga namuna.

Hozirgi o‘qitish jarayonimizda o‘quv mashg‘ulotlarini yangi zamonaviy shakl va usullarda tashkil qilish, o‘quvchilarni dars jarayonida maqsadni boshqara olish o‘qituvchilik faoliyatining bosh mezoni deb qaralmoqda. Ilg‘or pedagogik texnologiyaga asoslangan zamonaviy dars turlari va shakllarini qo‘llash, o‘quvchining ta’lim jarayonidagi o‘rni, unga yangicha yondashuv, yangicha munosabatni ta’minlash, mazkur jarayonni mohirlik va idrok bilan boshqarish demakdir. Mustaqillik tufayli yuz berayotgan hozirgi yangilanishlar, jamiyatimiz taraqqiyoti va istiqboli, ta’lim sohasidagi islohotlar umumjahon andozalariga mos keladigan, zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bilan chambarchas bog‘liq.

Yoshlarning ilmiy ijodiy faoliyatini chegaralamaydigan, uni faol tinglovchiga emas, balki faol ijodkorga aylantiradigan kashfiyot ta’lim usuli bilan ishlash o‘quvchi-o‘qituvchi munosabatlarini yo‘lga qo‘yadigan to‘g‘ri va samarali imkoniyatlarni topish va ishga solish zarur.

O‘quvchilarni to‘g‘ri, tushunib va ifodali o‘qishga o‘rgatish, o‘qish darslarida tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish maktabning barcha bosqichlarida xam muhim vazifalaridan biri hisoblangan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga badiiy asarlarni o'qitish va asarning badiiyligini anglatish, tahlil ettirish, doimo DTS talablari asosida olib borilishi zarur, deb yuqorida belgiladik. Chunki standart o'z nomi bilan o'quvchi bilim va ko'nikmasi uchun me'yor bo'lib, uning kamoliga xizmat etadi. Ikkinchi sinfda hiyo, qofiya kabi she'r bezaklari; sifatlash, o'xshatish, jonlantirish tasvir vositalari haqida dastlabki bilimlarni singdirish bolada badiiy adabiyotga mehr uyg'iotish bilan birga go'zallikni oson tushunish va anglashga yordam beradi. Bola qalbida ilk chechaklar yaxshilik bilan oshno bo'lsa, undan hech qachon yomonlik chiqmaydi, doimo nurga intilib, munavvar kunlar bilan shirin yashaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva D. Yangi pedagogik usullarda dars o'tishni ta'minlashda foydalaniladigan usullar. Andijon, 2001.
2. Abdullayeva Q. Ikkinchi sinfda o'qish darslari. Toshkent: O'qituvchi, 2007.
3. Abdullayeva Q. va boshq. O'qish kitobi, 2-sinf uchun darslik. Toshkent: O'qituvchi, 2007.
4. Ahmedov H. Sinf dan tashqari o'qishni tashkil etish. Boshlang'ich ta'lim// 1994. №3.
5. Ashrapova T. Uchinchi sinfda o'qish darslari. Toshkent: O'qituvchi, 1986.
6. Ashrapova T., Odilov M. Ona tili metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1984.
7. Boshlang'ich sinf davlat ta'lim standartlari. Boshlang'ich ta'lim// 2005. – №5.
8. Boshlang'ich ta'lim o'quv dasturi. Toshkent, 2008.
9. Hasanboyeva O. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1996.
10. Homidiy H. va b. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. Toshkent: O'qituvchi, 1967. – 300 b.
11. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Xalq so'zi. 2011- yil 22- yanvar, №16 (5183)
12. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent: O'zbekiston, 1999.
13. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. Toshkent: O'zbekiston. – 1994.
14. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. Toshkent: O'zbekiston, 2000. – 14 b.

- 15.Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild. Toshkent: O‘zbekiston, 2000. – 528 b.
- 16.Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Toshkent: O‘zbekiston. – 1995.
- 17.Karimov I.A. Yusak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
- 18.Komilov N. Komil inson – millat kelajagi. Toshkent: O‘zbekiston, 2001
- 19.Mirzayev I. Boshlang‘ich sinflarda og‘zaki ijodini o‘rganish. Toshkent: O‘qituvchi, 1979.
- 20.Qosimova K. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 1985. – B. 216.
- 21.Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b.
- 22.Sayidahmedov N. Noan’anaviy dars. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Moliya, 2003. – 98 b.
- 23.Umarova M., Hakimova Sh. O‘qish kitobi. Uchinchi sinf uchun darslik. Toshkent: Ijod dunyosi, 2008.
- 24.Vazirlar Mahkamasining “Davlat tili” Kadrlar tayyorlash milliy dasturi haqidagi qonunlar. Xalq ta’limi, 1997. – №1.
- 25.Yoqubjonova O. Sinfdan tashqari ishlar. Toshkent: O‘qituvchi, 1985.
- 26.Yusupov M. O‘qish va yozuv darslari samaradorligini oshirish. Toshkent: O‘qituvchi, 1990.
- 27.Yusupov M. va boshq. 2-sinf o‘qish kitobi. Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
- 28.Yusupova Sh. Noan’anaviy dars – davr talabi. Andijon, 2002. 54 b.
- 29.Zunnunov A., Esonov J. Maktabda adabiyot o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 1985.
- 30.Shojalilov A. va boshq. O‘qish kitobi. 4-sinf uchun darslik Toshkent: O‘qituvchi, 2008.